



## EKOLOGIYANING BOLALAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI

*Xolmatova Barnoxon Kodirjon qizi*

*Odashboeva Xilola Erkinboy qizi*

*Qo'qon universiteti Andijon filiali*

*Pediatriya ishi 1- bosqich talabalari*

### **Annotatsiya**

Atrof-muhit muhofazasi va inson salomatligi o'rtaqidagi bog'liqlik bugungi kunda jahon miqyosida dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, bolalar salomatligi ekologik muhitdagi salbiy omillarga nisbatan juda sezuvchan hisoblanadi. Ushbu maqolada Andijon tumanida ekologik muhitning hozirgi holati, u yerda yashovchi bolalarning sog'lig'i bilan bog'liq o'zgarishlar va bu omillar o'rtaqidagi munosabat o'rganiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda Andijon tumanida havo va suv ifloslanishining oshishi bilan birga, bolalarda nafas yo'llari kasalliklari, allergik reaksiyalar, diqqat yetishmovchiligi, jismoniy rivojlanishning sekinlashuvi kabi muammolar ham ortib bormoqda. Maqolada ekologik omillar – havoning sifati, sanoat chiqindilari, suv resurslarining holati va qishloq xo'jaligi vositalaridan foydalanish holatlari tahlil qilinadi. Bolalarning salomatligiga ushbu omillarning ta'siri statistik ma'lumotlar va so'rovnama natijalari asosida o'rganiladi. Ekologik ta'lim va gigiyena madaniyati darajasini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali ekologik salbiy oqibatlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, maqolada muammoning yechimiga qaratilgan takliflar – profilaktik chora-tadbirlar, davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, mahalliy hokimiyatlar va ta'lim muassasalari o'rtaida hamkorlik zarurligi haqida tahliliy mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, Andijon tumanı, bolalar salomatligi, atrof-muhit, ifloslanish, sog'lom turmush, profilaktika, nafas kasalliklari, gigiyena.



## THE IMPACT OF ECOLOGY ON CHILDREN'S HEALTH

### Annotation

The relationship between environmental protection and human health remains one of the most pressing issues in the world today. In particular, children's health is very sensitive to negative factors in the environmental environment. This article studies the current state of the environmental environment in the Andijan district, changes in the health of children living there, and the relationship between these factors. Studies show that in recent years, along with the increase in air and water pollution in the Andijan district, problems such as respiratory diseases, allergic reactions, attention deficit disorder, and physical development retardation in children are also increasing. The article analyzes environmental factors - air quality, industrial waste, the state of water resources, and the use of agricultural implements. The impact of these factors on children's health is studied based on statistical data and survey results. Negative environmental consequences can be prevented by increasing the level of environmental education and hygiene culture, and forming a healthy lifestyle. The article also provides analytical comments on proposals aimed at solving the problem - preventive measures, strengthening state and public control, and the need for cooperation between local authorities and educational institutions.

**Keywords:** ecology, Andijan district, children's health, environment, pollution, healthy lifestyle, prevention, respiratory diseases, hygiene.

## ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИИ НА ЗДОРОВЬЕ ДЕТЕЙ

### Аннотация

Взаимосвязь охраны окружающей среды и здоровья человека остается одной из самых актуальных проблем в современном мире. В частности, здоровье детей очень чувствительно к негативным факторам окружающей среды. В данной статье изучается современное состояние экологической



среды в Андижанской области, изменения в состоянии здоровья проживающих там детей и взаимосвязь между этими факторами. Исследования показывают, что в последние годы наряду с ростом загрязнения воздуха и воды в Андижанской области увеличиваются и такие проблемы, как респираторные заболевания, аллергические реакции, синдром дефицита внимания и задержка физического развития у детей. В статье анализируются экологические факторы - качество воздуха, промышленные отходы, состояние водных ресурсов, использование сельскохозяйственного инвентаря. На основе статистических данных и результатов опросов изучается влияние этих факторов на здоровье детей. Негативные экологические последствия можно предотвратить путем повышения уровня экологического образования и гигиенической культуры, формирования здорового образа жизни. В статье также даются аналитические комментарии по предложениям, направленным на решение проблемы - профилактические меры, усиление государственного и общественного контроля, необходимость сотрудничества местных органов власти и образовательных учреждений.

**Ключевые слова:** экология, Андижанский район, здоровье детей, окружающая среда, загрязнение, здоровый образ жизни, профилактика, заболевания органов дыхания, гигиена.

### Kirish

Ekologik muhit inson salomatligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Afsuski, sanoatning rivojlanishi, transport vositalarining ortib borishi, qishloq xo‘jaligi vositalarining haddan ziyod ishlatilishi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bu muammo bolalar salomatligiga tahdid solmoqda. Bolalar organizmi kattalarnikiga nisbatan tashqi muhitga sezuvchanroq bo‘lib, ekologik ifloslanish ularning immun tizimining zaiflashishiga, jismoniy va ruhiy rivojlanishining sekinlashishiga olib keladi.



Andijon tumani O‘zbekistonning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri hisoblanadi. Aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlarda havoning tozaligi, ichimlik suvining sifati, chiqindilarni boshqarish holati dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Andijon tumanida transport vositalarining ko‘pligi, qishloq xo‘jaligi yerlarida azotli o‘g‘itlarning haddan ortiq ishlatilishi, ayrim mahalliy sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar havo va suv resurslarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

JSST ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili millionlab bolalar ekologik omillar sababli sog‘liq muammolariga duch keladi. O‘zbekistonda ham, xususan, Andijon tumanida, havo ifloslanishi va suv sifati bilan bog‘liq sog‘liq muammolari ko‘plab holatlarda kuzatilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bronxial astma, tez-tez shamollash, allergiya, teri kasalliklari kabi holatlar kuzatilayotgani ekologik muhit va salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatmoqda.

Mazkur maqolada Andijon tumani misolida ekologik vaziyatning bolalar salomatligiga ta’siri o‘rganiladi. Bu orqali muammoning ildizini aniqlab, sog‘lom avlod tarbiyasi yo‘lida zaruriy choralarни ko‘rish lozimligi asoslab beriladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Ekologik muhit va bolalar salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy adabiyotlarda ko‘plab tadqiqotlar asosida yoritilgan. JSST (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, bolalarning 24% sog‘liq muammolari ekologik ifloslanish bilan bog‘liq. Bunda havo ifloslanishi, ichimlik suvining sifati va oziq-ovqatdagi kimyoviy moddalarning mavjudligi asosiy xavf manbasi hisoblanadi. Mutaxassislar havo tarkibidagi  $\text{SO}_2$ ,  $\text{NO}_2$ , chang zarralari (PM2.5, PM10) bolalarda nafas yo‘llari kasalliklarini keltirib chiqarishini ta’kidlaydi.

Mahalliy adabiyotlarda ham Andijon viloyati va tumanlarida ekologik holatga doir tahliliy ishlanmalar mavjud. Jumladan, professor S. Jo‘rayevning “O‘zbekiston viloyatlarida ekologik muammolar” nomli maqolasida Andijon viloyatida ayniqsa qishloq xo‘jaligi faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan tuproq



va suv ifloslanishi haqida so‘z yuritilgan. U yerda ishlatilayotgan azotli o‘g‘itlar va pestitsidlarning ortiqcha miqdori suv resurslariga tushib, ichimlik suvining sifati buzilayotgani ta’kidlangan.

Andijon viloyati Sanitariya-epidemiologiya stansiyasi (2022) hisobotida bolalar sog‘lig‘iga doir statistik ma’lumotlar e’lon qilingan bo‘lib, unda nafas yo‘llari kasalliklari, teri allergiyalari, gipovitaminoz va immunitet bilan bog‘liq kasalliklar o‘sib borayotgani ko‘rsatilgan.

Pedagog olima M. Abduqodirovaning tadqiqotlarida bolalarning ekologik tarbiyasini kuchaytirish, maktablarda gigiyena madaniyatini rivojlantirish orqali salbiy oqibatlarni kamaytirish mumkinligi qayd etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi "Ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoni asosida olib borilayotgan ishlar ham muhim manba hisoblanadi. Demak, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik muammolar va bolalar salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy asoslangan va bu sohada milliy va xalqaro darajada izlanishlar olib borilmoqda.

### Tadiqotlar qismi

Andijon tumanida joylashgan ikki maktab va bitta bog‘chada o‘tkazilgan kuzatuv va so‘rovnomalar asosida tadqiqot olib borildi. Tadqiqotda 6–12 yosh oralig‘idagi 60 nafar bola ishtirok etdi. Bolalarning sog‘lig‘i, yashash joyining ekologik holati, gigiyenaga amal qilish darajasi, ota-onalarning ekologik xabardorligi o‘rganildi.

So‘rov natijalariga ko‘ra, sanoatga yaqin joylashgan mahallalarda yashovchi bolalarning 63%ida bronxit, shamollash, allergik toshmalar va doimiy charchoq holatlari kuzatildi. Ularning 45%ida esa diqqat susayishi, o‘qish samaradorligining pasayishi qayd etildi. Aksincha, ekoholat nisbatan toza bo‘lgan hududlardagi bolalarda bunday simptomlar 25–30% atrofida kuzatildi. Tibbiyot xodimlari bilan suhbatda ular sanoat chiqindilari, yo‘l harakati zichligi va suv resurslarining



sifatsizligi kabi omillarni asosiy sabab sifatida ko'rsatishdi. O'qituvchilar esa maktablarda ekologik tarbiya yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini, bu esa bolalarda e'tiborsizlikka olib kelayotganini bildirishdi. Mazkur tadqiqot ekologik holat va bolalar salomatligi o'rtaсидagi bog'liqlikni Andijon tumani misolida aniq isbotlaydi. Yashash joyi va ekologik holat sog'liq darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

### Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik muhit bolalar salomatligining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Andijon tumani misolida olib borilgan kuzatuvlar ekologik ifloslanish va bolalardagi sog'liq muammolari o'rtaсиda bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, sanoatga yaqin hududlarda yashovchi bolalarda nafas yo'llari kasalliklari, allergik reaksiyalar, psixologik charchoq holatlari keng tarqalgan.

Muammoning ildizi — havoning sifati, ichimlik suvining ifloslanishi, qishloq xo'jaligi vositalarining nazoratsiz ishlatilishi va chiqindi boshqaruvi bilan bog'liq. Bu muammoni bartaraf etish uchun mahalliy hokimiyatlar, sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim muassasalari va jamiyat a'zolari o'rtaсиda uzviy hamkorlik zarur.

Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish, mакtab va bog'chalarda ekologik tarbiyani kuchaytirish, bolalarga sog'lom turmush tarzini singdirish orqali salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin. Davlat tomonidan ekologik xavfsizlikka oid qonunlar va nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajak avlod sog'lom bo'lishi uchun bugun ekologik muhitga e'tibor qaratishimiz zarur. Zero, sog'lom bola — sog'lom jamiyat kafolatidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. K., Usmonova D. Sh. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 256 b.



2. Murodov S. E. Bolalar sog‘lig‘i va ekologik omillar. – Andijon: AndDU nashriyoti, 2021. – 148 b.
3. Yo‘ldoshev R. B. Atrof-muhit va inson salomatligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 198 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Bolalar salomatligiga ekologik ta’sirlar bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2020. – 72 b.
5. Xo‘jamqulova Z. A., Ergasheva N. R. Ekologik xavfsizlik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 214 b.
6. Xidirov J. S. Ekotibbiyat: Ekologiya va tibbiyat integratsiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 179 b.
7. Soliyev T. O. Hududiy ekologik muammolar va ularning ijtimoiy oqibatlari. – Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2020. – 201 b.
8. Ismoilova M. Sh. Bolalar organizmiga zararli ekologik omillarning ta’siri. – Toshkent: Tibbiyat, 2022. – 164 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim vazirligi. Andijon viloyatida ekologik holat to‘g‘risida axborot. – Toshkent: Ekologiya axborot markazi, 2023. – 88 b.